



XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING

QARORI

2024-yil 23-aprel

VI-67-29-11-154-K/24

Buvayda tumani

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag’lar ajratish to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprel kungi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag’lar ajratish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-sentabrdagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 1-fevral kundan 22-fevral kuniga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Ergashevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2024-yil 28-fevral kungi VI-65-15-11-154-K/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridankelib chiqib, “Ochiq budget” axborot portalida “**ENG KO’P**” ovoz olib avtomatik tarzda g‘olib sifatida **17 800,0 mln so‘mlik 14 ta** tanlab olingan loyihalar “g‘olib” deb topilsin.

3. Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha “Manzilli ro‘yhat” 1- ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda:

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'ymaslik;

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan tuman budjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo'yilsin.

4. Tasdiqlangan manzilli ro'yhat asosida:

- tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Ergashev) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbasi bo'yicha "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mahsus hisob raqamlari ochilishini;

- tuman hokimligi hisobxonasi jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

- buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati (A.Shokirov) va tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Ergashev) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq budget" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

7. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



IBRAGIMOV BEHZOD
ODILJONOVICH

Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashining
2024-yil 23-apreldagi
VI-67-29-11-154-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Farg`ona viloyati Buvayda tumani "Tashabbusli byudjet" loyihasining 2024 yil 1 mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha MANZILLI RO'YXAT									
									ming.so`m
№	G`olib taklif ma'lumotlari						Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda ajratilgan mablag`	Buyurtmac hi etib belgilangan tashkilot
	Taklif ID raqami	Taklif turkumi	Qisqacha mazmuni	Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi)	Amalga oshiriladigan tadbir turi	To`plagan ovozlari soni			
			Buvayda tumani jami		xxx	100 229	17 800 000 000,0	17 800 000 000,0	
1	03232711 0011	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	45- Maktabga Maktab xududiga kushimcha 120 urinli bino kurish va 60 urinli faollar zali kurish zarur	Tog`liq	Qurilish-ta'mirlash	8008	1360000000	1360000000	Yagona byurtmachi xizmati korxonasi

2	03230585 5011	Ko`cha chiroqlarini o`rnatish yoki ta'mirlash (transformator, simyog`och o`rnatish) tadbirlari	Toglik mfyda baraka.kul marifat archazor kuchalariga 2 dona tp 250 talik 4 km tarmok tortish yopik kabelda 80 dona beton sim yogoch 80 dona kucha chiroklari urnatish	Tog`liq	Qurilish-ta'mirlash	6175	1040000000	1040000000	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi
3	03231788 2011	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	51 maktab stadioni yoniga zamon talablariga mos sport zali kurish va jixozlash	Buvimozor	Qurilish-ta'mirlash	6897	1360000000	1360000000	Yagona buyurtmachi xizmati korxonasi
4	03230499 3011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog`liq tadbirlar	Koratepa mfy barxayot, vatanparvar, sulola, zomondosh va ularga tutash kuchalarni asfaltlashtirish va ta'mirlash 2800 metr	Qoratepa	Qurilish-ta'mirlash	6829	1360000000	1360000000	Farg`ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
5	03230674 3011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog`liq tadbirlar	Chumbogig mfy gulzor kuchasi 2000 metr asfalt piyodalar yulagi 700 metr asfaltlash uchun	Cho`mbog`ish	Qurilish-ta'mirlash	6022	1360000000	1360000000	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi

6	03230267 0011	Ko`cha chiroqlarini o`rnatish yoki ta'mirlash (transformator, simyog`och o`rnatish) tadbirlari	Chumbogish MFY shirin suv,b irdamlik ,c humbogish kuchalarini elektr tarmok 4.5 km tortish 1 ta 250 tp 130 ta beton simyogoch kucha chiroklari 130 urnatish kerak	Cho`mbog`ish	Qurilish-ta'mirlash	5147	1060000000	1060000000	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi
7	03231464 6011	Ichki yo`llarni (piyodalar yo`lakchasi, yo`l o`tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog`liq tadbirlar	Xakimto`ra mfy Xakimto`ra qishlog`ini asfaltlanmagan ichki yo`llarining 2700 metr qismini asfaltlash	Xakimto`ra	Qurilish-ta'mirlash	7682	1360000000	1360000000	Farg`ona mintaqaviy yo`llarga buyurtmac hi xizmati DUK
8	03230211 7011	Mahalla guzari (mahallada umumfoydalanish da bo`lgan boshqa ob'yektlar) ni ta'mirlash-tiklash bilan bog`liq xarajatlar	Urganji MFY o`rniga zamonaviy talablar ga moslashtirilgan yangi bino qurish	Urganji	Qurilish-ta'mirlash	5991	1360000000	1360000000	Yagona byurtmachi xizmati korxonasi
9	03232298 6011	Ichki yo`llarni (piyodalar yo`lakchasi, yo`l o`tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog`liq tadbirlar	Beshterak mfy mirishkor kuchasi 500 metr vatandosh kuchasi 600 metr kuchasi Kamolotkuchasi 400 metr	Beshterak	Qurilish-ta'mirlash	7873	1360000000	1360000000	Farg`ona mintaqaviy yo`llarga buyurtmac hi xizmati DUK

			beshterak kuchasi 1200metr jami 2700 metr asfaltlash uchun						
10	03231155 3011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Yangikurgon MFY Novroz Nurafshon Nasimiy Anxor Chukur Maxalla kuchalarini ichki yullarnini 2700 asfaltlash uchun	Yangiqo'rg'on	Qurilish- ta'mirlash	7141	1360000000	1360000000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmac hi xizmati DUK
11	03231515 9011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Oqtepa MFY Obod diyor Ko'chasini asfallashtirish 1600metr joyni asflashtirish	Oktepa	Qurilish- ta'mirlash	7247	900000000	900000000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmac hi xizmati DUK
12	03229780 6011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Gaznachi qishlog'i Serquyosh zamin Yangi yo'l ko'chalari 3 km Asfalt qoplash zarur	Ponsod	Qurilish- ta'mirlash	7844	1360000000	1360000000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmac hi xizmati DUK
13	03231423 4011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Bachqir MFYning ko'chalari Nurabod ko'chasini 2000 metr, Hunarmandlar 700 metr, Chinobod ko'chasining 200, Obod diyor ko'chasining 100	Bachqir	Qurilish- ta'mirlash	9673	1360000000	1360000000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmac hi xizmati DUK

			metr joyini asfaltlashtirish						
14	03231719 2011	Ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash bilan bog`liq tadbirlar	Barkamol ko`chasida joylashgan eski ichimlik suv quduqini yangidan qazish	Poshshopirim	Qurilish- ta'mirlash	7700	1200000000	1200000000	Suv ta`minoti va oqova suv obektlari qurulishi bo`yicha injiniring kompaniya si